



UDK: 159.922.736; 17.021.1

Sevaraxon OTAXONOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi
Qo'qon universiteti Andijon filiali
E-mail: sevaraxonotaxon@gmail.com

Dotsent, PhD M.Bakiyeva taqrizi asosida

ISSUES OF NEGATIVE BEHAVIOR AND UPBRINGING IN THE WORKS OF JADID ENLIGHTENER ABDULLA AVLONI

Annotation

This article analyzes the views of the Jadid enlightener Abdulla Avloniy on morality, behavior, and education. In particular, it examines the ethical ideas presented in the work *Turkiy Guliston yoxud axloq*, as well as the concepts of good and bad behavior and their role in the upbringing of the younger generation. The article reveals the essence of such negative traits as foolishness (*hamoqat*), cruelty (*zulm*), and hostility (*adovat*), and explains their negative impact on personal and social development. It also analyzes the importance of the opposite positive moral quality – *hilm* (patience, gentleness, and tolerance) in the process of education.

Key words: Morality, education, moral education, good manners, bad manners, rebelliousness, politeness, aggression, hostility.

ВОПРОСЫ НЕГАТИВНОГО ПОВЕДЕНИЯ И ВОСПИТАНИЯ В ТРУДАХ ПРОСВЕТИТЕЛЯ ДЖАДИДОВ АБДУЛЛА АВЛОНИ

Аннотация

В данной статье анализируются взгляды джадидского просветителя Адулла Авлони на вопросы нравственности, поведения и воспитания. В частности, рассматриваются нравственные идеи, изложенные в произведении *Turkiy Guliston yoxud axloq*, а также понятия хорошего и плохого поведения и их роль в воспитании молодого поколения. В статье раскрывается сущность таких негативных качеств, как глупость (*хамоqат*), жестокость (*зулм*) и враждебность (*адоват*), а также объясняется их отрицательное влияние на развитие личности и общества. Кроме того, анализируется значение противоположного этим качествам положительного нравственного качества — *хильм* (сдержанность, мягкость и терпение) в процессе воспитания.

Ключевые слова: Мораль, воспитание, нравственное воспитание, хорошие манеры, плохие манеры, упрямство, вежливость, тирания, враждебность.

JADID MA'RIFATPARVARI ABDULLA AVLONIY ASARLARIDA SALBIY XULQ VA TARBIYA MASALALARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada jadid ma'rifatparvari Abdulla Avloniy asarlarida axloq, xulq-atvor va tarbiya masalalari tahlil qilinadi. Xususan, *Turkiy Guliston yoxud axloq* asarida bayon etilgan axloqiy qarashlar, yaxshi va yomon xulq tushunchalari hamda yosh avlod tarbiyasida axloqiy qadriyatlarining o'rni yoritiladi. Maqolada salbiy xulq sifatida hamoqat, zulm, adovat kabi illatlarning mohiyati ochib berilib, ularning jamiyat va shaxs rivojiga salbiy ta'siri izohlanadi. Shuningdek, ushbu salbiy xususiyatlarga zid bo'lgan hilm, ya'ni sabr-toqat, muloyimlik va bag'rikenglik kabi ijobiy fazilatlarining tarbiya jarayonidagi ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Axloq, tarbiya, axloq tarbiyasi, yaxshi xulq, yomon xulq, hamoqat, hilm, zulm, adovat.

Kirish. Inson xulq-atvori va tarbiya masalalari har doim jamiyat rivojida muhim o'rin tutgan. Jadid ma'rifatparvarlari, xususan Abdulla Avloniy, axloqiy tarbiyani nafaqat shaxsiy kamolot, balki ijtimoiy taraqqiyot mezonini sifatida ko'rgan va yosh avlodni ma'naviy va axloqiy qadriyatlar asosida tarbiyalashni ustuvor vazifa deb bilgan. Uning «*Turkiy Guliston yoxud axloq*» asari o'zbek klassik pedagogikasining ajoyib namunalaridan biri sanaladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Mazkur maqolada Avloniyning inson xulq-atvori, axloqiy fazilatlar va salbiy illatlarga oid qarashlari tahlil qilinadi, shuningdek, uning «*Turkiy Guliston yoxud axloq*» asaridagi axloqiy tushunchalar va tarbiya usullari o'rganiladi. Bola xulq-atvori, farzand tarbiyasiga doir milliy adabiyotlarni o'rganish, tahlil etishda bu asarni ko'rib chiqish muhim ahamiyatga egaki, unda o'ziga xos bo'lgan axloqiy qarashlar, xulq tasnifi (klassifikatsiyasi), fe'l-atvor (xulq va xarakter) xususiyatlari va tarbiya masalalari ko'tarilgan. Jadidchilik

maktabining yirik namoyandasi asarida bildirilgan fikr-mulohazalar, berilgan tavsiyalar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Uni o'rganish dolzarbligi ham shundaki, bu asar milliy muhitda olib borilayotgan pedagogik-psixologik tadqiqotlar mazmunini boyitishga xizmat qiladi. Tadqiqotning maqsadi Avloniyning pedagogik merosini bugungi pedagogika va tarbiya jarayonlariga tadbiiq etish imkoniyatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi. Jadid ma'rifatparvari Abdulla Avloniyning «*Turkiy Guliston yoxud axloq*» asarida salbiy xulq-atvor va tarbiya masalalari nazariy-qiyosiy tahlil usulida yoritildi.

Tahlil va natijalar. Abdulla Avloniy fikricha, inson tabiatan yaxshi va yomoni ajratish qobiliyatiga ega bo'lib, bu qobiliyatni o'z kamoliga etkazmak tarbiya orqaligina amalga oshiriladi: «Inson javhari qobildur. Agar yaxshi tarbiya topib, buzul xulqlardan saqlanub, go'zal xulqlarga odatlanub katta bo'lsa, har kim qoshida maqbul, baxtiyor bir inson bo'lub

chiqar. Agar tarbiyatsiz, axloqi buzulub o'ssa, Allohdan qo'rqmaydurgan, shariatga amal qilmaydurgan, nasihatni qulog'iga olmaydurgan, har xil buzuc ishlarini qiladurgan, nodon, johil bir rasvoyi olam bo'lub qolur». Har bir inson fitrati barcha bilan umumiy xususiyatlarga ega bo'lsa-da, olgan tarbiyasi bilan ulug'lanadi. Bolani faqat tug'ib qoldirib bo'lmasligi, balki uni tarbiya bilan kamol toptirish lozimligi, bu ota-onaning nasabi, kasb-koriga emas, balki olgan tarbiyasiga bog'liq jihat ekanligini uqtiradi.

Tarbiya, muallim nazariida, «pedagogiya» – bu bolani tarbiyalashga oid ilm hisoblanadi. Axloq ilmining negizida ham aynan tarbiya yotadi. Bolaning sog'lom va baxtli bo'lib voyaga yetishi uchun unga to'g'ri tarbiya berish zarur: uning tanasini pok saqlash, yoshligidan to'g'ri yo'lga yo'naltirish, yaxshi fazilatlarini singdirish va yomon odatlardan asrash muhimdir. Tarbiyachi ma'lum ma'noda tabibga o'xshaydi. Qandayki tabib bemorning tanasidagi kasallikni davolasa, tarbiyachi ham bolaning qalbida paydo bo'lishi mumkin bo'lgan jaholat «kasalligini» davolashi kerak. Bunda «yaxshi xulq» ichki davo, «poklik» esa tashqi davo sifatida xizmat qiladi. Shu tariqa bola sog'lom ruh va toza axloq bilan ulg'ayadi. Demak, inson xulq-atvorining go'zal bo'lishida eng muhim omil – bu to'g'ri va puxta tarbiyadir. Avloniy esa «tarbiya axloqqa ta'sir qilmaydi, inson qanday yaratilgan bo'lsa, o'sha holicha rivojlanadi, inson tabiati o'zgarmaydi» degan qarashlarni rad etib, aksincha tarbiya inson xulqining shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ta'kidlaydi [1].

U tarbiya jarayoni bolaning tug'ilgan ilk kunlaridanoq boshlanishi kerakligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, bolani jismonan sog'lom va quvvatli qilib tarbiyalash, tafakkurini ilm bilan boyitish, axloqini go'zal fazilatlar bilan shakllantirish hamda zehni ravshanlashtirib borish muhimdir. Shuningdek, u «Tarbiyani kim amalga oshiradi va qayerda beriladi?» degan savolni ham ko'taradi. Bu savolga javoban, avvalo tarbiya oilada, ya'ni uy muhitida boshlanishini, bu esa asosan onaning mas'uliyati ekanini aytadi. Ikkinchi bosqich esa maktab va madrasalarda davom etadi. Bu jarayonda ota-onalar, o'qituvchilar, mudarrislar hamda davlat ham muhim mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi lozimligini ta'kidlaydi [2]. Albatta, bu fikrlar bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan va bu masalaga yurtimizda, nafaqat, ota-ona tomonidan, balki ta'lim maskanlari bilan bir qatorda oila, mahalla institutlari, hukumat tomonidan ham siyosiy darajada e'tibor qaratiladi.

Abdulla Avloniy axloqiy tarbiyaning ahamiyatini alohida ta'kidlab, insonni yuksak martabaga ko'taradigan, unga eng katta sharaf va qadriyat bag'ishlaydigan omil aynan axloq tarbiyasi ekanini qayd etadi. Shuningdek, u ta'lim (dars) bilan tarbiya o'rtasidagi farqni ham izohlaydi. Uning fikricha, dars olish – bilimni o'zlashtirish jarayonini bildirsa, tarbiya esa o'rganilgan bilimlarni amalda qo'llash, ya'ni xulq-atvorda namoyon etish bilan bog'liqdir. Shunday qilib, bilim egallash va uni hayotda qo'llash o'rtasidagi farq dars va tarbiya o'rtasidagi asosiy tafovutni tashkil etadi. Axloqiy tarbiya beruvchi muallim o'zi ham berayotgan ilmiga amal qilishi lozimligini uqtiradi [3].

U o'zining «Turkiy Guliston yoxud axloq» nomli risolasida axloq haqida so'z yuritib, insonlarni yaxshilikka chaqirguvchi va yomonlikdan qaytarguvchi ilm hamda yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar bilan bayon etadigan ilmi axloq ekanligini bildiradi. Xulq to'g'risida esa quyidagi mulohazalarni bayon etadi: «Inson ikki narsadan murakkabdur. Biri jasad, ikkinchisi nafsdur. Jasad ko'z ila bor narsalarni ko'ruv. Ammo nafs idrok ila yaxshini yomondan, oqni qoradan ayiruv. Jasadning ham, nafsning ham biror surati bordurki, yo yaxshi va yo yomon bo'ludur. Jasadning surati hammaga ma'lum bir narsadurki, har

vaqt ko'zga ko'rinib turadur. Ammo nafsning surati ko'zga ko'rinmaydurgan, aql ila o'lchanadurgan bir narsadurki, buni xulq deb ataluv» [4].

Olim xulqni yaxshi va yomon xulq sifatida tasniflaydi: «Axloq ulamosi insonlarning xulqlarini ikkiga bo'lmishlar. Agar nafs tarbiyat topib, yaxshi ishlarini qiluriga odat qilsa, yaxshilikga tavsif bo'lub, «yaxshi xulq» agar tarbiyatsiz o'sub, yomon ishlaydurgan bo'lub ketsa, yomonliqqa tavsif bo'lub «yomon xulq» deb ataluv. Yaxshi xulqlar shaxsiy ehtiyojlar va shaxslararo munosabatlar uchun zarur bo'lgan xulqlar sifatida keltirilgan, bular – fatonat, diyonat, islomiyat, nazofat, g'ayrat, riyozat, qanoat, shijoat, ilm, sabr, hilm, intizom, miqyosi nafs, vijdon, vatanni suymak, haqqoniyat, nazari ibrat, iffat, hayo, idrok va zako, hifzi lison, iqtisod, viqor, xavf va rajo, itoat, haqshunoslik, xayrixohlik, munislik, sadoqat, muhabbat va afvdur. Yomon xulqlar qatoriga g'azab, shahvat, jaholat, safohat, hamoqat, atolat, hasosat, rahovat, anoniyat, adovat, namimat, g'iybat, haqorat, jibonat, hasad, nifoq, tama, zulm kabilar kiritilgan [5].

Avloniy yaxshi va yomon xulqlarni bayon etar ekan, barcha yomon xulqlarning asosi jaholat, ya'ni bilimsizlik, nodonlik ekanligini ta'kidlagan holda salbiy xulq-atvor, shuningdek, «jaholat» (bilimsizlik, nodonlik), «hamoqat» (ahmoqlik, qaysarlik, o'z bilganidan qolmaslik, bilimsizlik), «g'azab» (shiddat va hiddat bilan muomala qilish), «adovat» (xusumat va dushmanlik), «zulm» kabi bir qator tushunchalar tahliliga katta o'rin ajratadi. U o'z risolasida ayrim tushunchalarni, xususan, «taaruz» – qarshilik ko'rsatish, «xusumat» – janjal, dushmanlik ziddiyat, «muqobala» – qarshi kelish, qarshi chiqish, «bo'z» – gina kek, dushmanlik, «zulm» (ya'ni, agressiya) – bironing joniga yoki moliga zarar yetkazmoq, «niqor» – gina, dushmanlik, kek, «itiroz» – qarshilik, kelishmaslik kabi izohlar bilan ifodalagan.

Avloniy talqinida hamoqat – «aql va ma'rifatning kamlig'idan hosil bo'ladurgan eng yomon xulqlarning biridir. Hamoqatning ma'niyi lug'aviysi balohatga (ahmoqlik, razillik) yaqin o'ldig'indan ba'zi hukamo ahmoqlarni jahli murakkab ashobindandur, demishlar. Ahmoq kishilarni bir ishda aqliy va naqliy dalillar ila ko'ndurub bo'lmas, hamon o'zum bilarmantligaridan ayrilmaslar» [6]. Adib hamoqat tushunchasini izohlashda Ibn Sino, Luqmoni Hakim va Suqrot kabi donishmandlarning qarashlariga murojaat qilib, bu illatning naqadar zararli ekanini yana bir bor asoslab beradi. Ularning fikrlariga tayangan holda, dalil va isbotsiz holda biror narsani inkor etish yoki qabul qilish aqlsizlik belgisi ekanini ta'kidlaydi. Oqil inson esa har bir masalaga har tomonlama yondashib, uni chuqur o'rganadi, tekshiradi va shoshilinch xulosa chiqarmaydi. Shuningdek, Luqmoni Hakimning fikriga ko'ra, ko'plab kasalliklarning davosi topilishi mumkin, ammo ahmoqlikni davolash juda mushkuldir. Suqrot esa agar nodon kishi sukut saqlasa, uning ahmoqligi bilinmay qolib, hatto u o'rtacha aqli odamdek ko'rinishi mumkinligini, biroq odatda ahmoqlik bilan sukut bir joyda jam bo'lmasligini ta'kidlaydi. Axloqshunos olimlar nazariida hamoqat jaholatdan ham yomonroq illat hisoblanadi. Chunki johil kishida faqat bilimsizlik bo'lsa, ahmoq kishida esa odamlarni chalg'ituvchi yolg'on va asossiz fikrlar ham bo'lishi mumkin. Natijada bunday kishi boshqalarni ham adashtirib, noto'g'ri yo'lga boshlashi ehtimoli yuqori bo'ladi. Agar jaholatning davosi ilm bo'lsa, hamoqatning davosi aql va tafakkurdir. Inson o'z ustida ishlasa, diqqat bilan kuzatish va ibrat olish orqali fikrini rivojlantirsa, bu illatdan xalos bo'lishi mumkin. Aks holda, tarbiya va tafakkurdan yiroq bo'lgan kishi ko'pincha turli muammo va afsuslarga duch kelishi mumkinligi ta'kidlanadi [7].

Hamoqat ayrim manbalarda qaysarlik sifatida talqin etilsa-da, aslida bu so'z ma'nosida ahmoqlik nazarda tutiladi,

lekin uning ba'zi jihatlari qaysar fe'l xususiyatlarini ham o'zida mujassam etgan. Biroq to'laqonli qaysarlik emas. Bundan shuni anglash mumkinki, qaysarlik ahmoqlik bilan o'xshash va bir-biriga qorishib ketgan, ammo bir xil tushuncha emas. Bular bir-biridan farq qilsa-da, qaysarlik xususiyatida ham o'z talabi, qarorida asossiz turib olish kuzatiladi. Ahmoqlikda faqat o'z fikriga nisbatan, o'z bilganida qat'iyat kuzatilsa, qaysarlikda o'z qarori ustida, o'zining aytganini qilish, o'z talabini bajarish xususida qat'iyat kuzatiladi. Hatto Alisher Navoiyda ham, qaysar xulq tavsifi "aqli sarkash" darajasi, sifati bilan izohlangan [8]. Demak, qaysarlik va ahmoqlik orasida bog'liqlik bo'lishi mumkin. Bu taxmin esa, psixologiyada salbiy xulqni o'rganishda aqliy daraja bilan aloqadorlik jihatlari tadqiq etish imkoniyatini yaratadi.

Hamoqatga yaqin tushunchalardan yana biri jaholat olim tomonidan ikki qismga bo'linadi. Ulardan biri «jahli basit», ikkinchisini «jahli murakkab» deb nomlanadi. Avloniy ularga quyidagicha izoh beradi: «Jahli basit» maraziga muhtalo bo'lgan kishilar bir narsani bilmasalar ham bilmaganliklarini iqrar va e'tirof qilurlar. Shuning uchun buning davosi oson: faqat bilmak va o'rganmak yo'lida jahd-u jadal qilmak ila bo'lur. «Jahli murakkab» maraziga muhtalo bo'lgan kishilar bir narsani bilmas, bilmaganini ham bilmasdan bilaman deb da'vo qilur. Bizda munday kishilarga «o'zboshimcha» va «o'zim bilamon» ismini berurlar. Bu dardi bedavoning iloji janobi Haqning lutf va inoyati ila hal o'linmasa, tuzalmoq'i mushkil va og'irdur."

Abdulla Avloniy fikricha, jaholat – bu bilim va ma'rifatdan mahrum bo'lish, nodonlikdir. U insoniyatning eng katta dushmani va yomon xulqlarning boshlanishi hisoblanadi. Maorif va ilmdan uzoq qolgan xalq jaholat panjalarida ezilib, o'z nafsini boshqara olmaydi. Ilm egalari esa har bir ishni tadqiq va mulohaza bilan bajaradi, johillar esa bu imkoniyatdan mahrum. Jaholat nafaqat shaxsni ma'naviy boylikdan mahrum qiladi, balki uning qismini va sharafini ham kamaytiradi; moddiy boylik qanchalik bo'lsa ham, ma'naviy jihatdan u shunchalik miskin va zaif hisoblanadi. Shu bois, aql va ilm qanchalik yuksak bo'lsa, jaholat natijasidagi zarar shunchalik kattalashadi [9].

Ko'rinib turibdiki, jaholat tushunchasi hamoqatga yaqin bo'lsa-da o'ziga xos jihatlari bilan farq qiladi. Ya'ni jaholatning bir qismini ilm-ma'rifat bilan tuzatish imkoni borligi ahmoqlikdan ajratib turadi, shu sabab ahmoqlik tuzatib bo'lmaz, yoki tuzatish murakkab ish ekanligi bilan jaholatning ikkinchi qismi "jahli murakkab"ga kiradi. Demak o'zboshimchalik, o'zibilmarmonlik, o'jarlik va qaysarlik fe'l kabi murakkab sanaladi.

Abdulla Avloniy qaysarlikka zid bo'lgan yaxshi xulq, fazilat sifatida hilmga alohida to'xtalgan. Hilm – bu har qanday ishga achchig'lanmaslik, muloyim, yumshoq tabiatli va sabrli bo'lishdir. U inson qalbida adovat, g'azab va hiddat kabi yomon xulqlarni kamaytiradi va axloqiy kamolotni ta'minlaydi. Hilm orqali nafsni boshqarish, fikr va vijdonni tinch saqlash mumkin bo'ladi. Avloniy fikricha, chin inson bo'lish uchun inson har doim muloyim, sabrli, mulohazali va xushfe'l bo'lishi, o'z qudratini o'ziga xos jihatlari bilan yetkazishda ishlatmasligi lozim. Shu bois, hilm insonning shaxsiy obro'si va jamiyatdagi hurmatining asosiy poydevoridir. Muallif shuningdek, hilmiy fazilatni me'yoridan oshirib ishlatishning zararli ekanini ham ta'kidlaydi: u shaxsni viqor va hurmatdan mahrum qilishi mumkin [10].

Shuningdek, itoatsizlik, o'jarlikka qarshi o'laroq yaxshi xulqlardan biri bo'lmish itoat to'g'risida ham quyidagi fikrlarni bildiradi: «Itoat deb bo'yinsunmakni aytilur. Alloh taoloning amriga boyinsunuv, ibodat va itoat qilmak farzi ayndur. Rasuli akram nabiiyi muhtaram sallolohu alayhi vasallam afandimiz: «Alloh taoloning amriga muxolif bo'lgan holda hech kimning

amriga itoat qilmak vojib emasdur» – demishlar. Ota-ona, ustod, muallim kabi o'zidan ulug' kishilarga bo'yinsunub itoat qilmak eng yaxshi sifatlardandur. Bu sifatga ega bo'lmak uchun har vaqt ularning foydali kengash va nasihatlarini tinglab, buyruqlarini mahkam tutmak lozimdur. Chunki onlar dunyoga bizdan ilgari kelganlar, bizdan ko'proq tajriba hosil qilganlar, vatan va millatning holiga oshno bo'lganlar. Tabiblar dardlarga davo hozirlagandek, bular ham turmush va yashamakning ofati bo'lgan faqirlik, yalqovlik, nodonlik kabi vujudimizni churitudurgan marazlarga davo hozirlaganlar. Shuning uchun bizga qilgan xolisona beg'araz nasihatlarini hozirda og'ir va achchig' ko'rinsa ham, oxiri rohat va totli bo'lub chiqar. Nasihat bo'lsa xoli gar g'arazdan, Achchig' doru kabi saqlar marazdan. Biza lozim erur bilmoq, eshitmoq, Ziyondan boshqa bir shay yo'q g'arazdan» [11].

G'azab tushunchasini tavsiflar ekan, Avloniy, uni bir kishining ikkinchisi bilan shiddatli va hiddatli muomala qilishi deb tushuntiradi: "G'azab insonga maxsus bir quvvayi murofiadurki, tabiatda mavjud o'lan g'azab tuyg'usi ila boshqalar tarafidan keladurgan zarar va halokatdan o'z nafsini faqat shu soyada saqlar. Lekin g'azabning jabr va zulm tariqi-la ishlatmakdan nihoyatda ehtiyot bo'lmak lozimdur. Nafsning g'ururidan paydo bo'lgan g'azab insonni alamlik azoblarga giriftor qiladur. Chunki bu shiddat va haroratning ta'siri vujuddagi qonni buzub, harakat qildurub, dimog'iga hujum qilub, aqlni parishon qilurda kishining ixtiyorini qo'lidan olub va bu soyada o'zini yoxud boshqa bir kishini hasrat va nadomatga duchor qilur. G'azablik kishilar qancha aql va idrok sohibi bo'lsa ham, g'azab qoni qo'zg'algan zamonida o'zini to'xtatolmas, aql va idrokidan ayrilub, bir yomon ishni qilub qo'yar-da, so'ng'idan pushaymon bo'lur" [12].

Shuningdek o'jar, qaysar, ters kishilarda namoyon bo'ladigan illatlardan adovat va zulm haqida ham quyidagi mulohazalarni bildirgan. «Adovat deb birovga xusumat va dushmanlik qilmakni aytilur. Adovat vijdonni behuzur qiladurgon eng yomon xulqlardan o'ldig'ini inson yaxshi bilsa edi, hech vaqt aziz jonini alamlik azobga giriftor qilmas edi... Hamaga ochuq va oydundurki, adovat daraxti xusumat mevasini chiqarur. Agar adovatni kesub tashlab o'rniga muxolasat novdasi ulansa va bu soyada muhabbat va ulfat mevasi nishona qilur. Rasuli akram nabiiyi muhtaram sallolohu alayhi vasallam afandimiz: «Alloh taoloni suymagan odam xusumat va da'vosinda qattig'lik qilgan odamdur», – demishlar. Adovat balosi bizlarni netdi, Adovat qilma deb Haq bizga aytti. Zidlik qilduk, mol va davlatlar ketdi, Moldan o'tub, oxir jonlarga yetdi" [13].

"Zulm deb birovning joniga yoki moliga zarar yetkurmakni aytilur. Janobi Haq butun yer yuzidagi insonlarni huquqda musoviy – barobar qilub yaratmishdur. Mansab va davlatga, kuch va quvvatga mag'rur bo'lub, birovning haqig'a taarruz va tajovuz qilmak zulmdur. Kattalikning izzati zulm va taaddida emas, shafqat va marhamatdadur. Kichiklikning lazzati nafirat va qarshulikda emas, sadoqat va hurmatdadur."

Olimning xulq klassifikatsiyasi va tavsifi, ularni tushuntirishda keltirgan iqtibos va misollar inson tabiatining o'ziga xos jihatlari, fe'l-atvorini chuqurroq anglash, ularni to'g'ri tarbiyalashga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Jadid namoyandasi Abdulla Avloniyning «Turkiy Guliston yoxud axloq» asarida yoritilgan xulq, odob, farzand tarbiyasi to'g'risidagi turli mulohazalar, qarashlarni tahlil etib, shuni aytish mumkinki, salbiy xulq-atvor va unga yondosh xulq shakllari badfe'llik, pastlik sifatida qoralangan hamda ahmoqlik, nodonlik darajasida baholangan. Ularning qarashlarida yomon xulqning asoslari sifatida ilm va ma'rifat, tarbiyaning kamligi asosiy omil sifatida ko'riladi. Ularni ijobiy xulq shakllariga o'zgartirish, bolalar ta'limi va tarbiyasida yaxshi xulq sifatlarini shakllantirishda ta'lim va

tarbiyaning ahamiyati ochib berilgan, farzand tarbiyasiga doir ijtimoiy, pedagogik va psixologik jihatlar ilmiy asoslangan.

Buyuk ma'rifatparvar ilgari surgan ta'lim-tarbiyaviy, ilmiy-pedagogik qarashlar bugungi kunda ham dolzarb

ahamiyatini yo'qotmagan va barchamiz uchun ibrat maktabi vazifasini o'taydi. Uning merosini o'rganish, hayotga, ilm-fan va amaliyotga tadbiq etish ilmiy jamoatchilik zimmasidagi asosiy burchlardan biridir.

ADABIYOTLAR

1. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. www.ziyouz.com kutubxonasi.
2. Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati / O'zR Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi, O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati; tahrir hayati: X. Sul'tonov va boshq.; tuzuvchi va mas'ul muharrir Q. Nazarov. T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010. 760 b.
3. Otaxonova S.T. Navoiy asarlarida salbiy xulq-atvor xususiyatlarining pedagogik-psixologik talqini // Alisher Navoiy va XXI asr, Xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari, Alisher Navoiy nomidagi TDO'TAU, Toshkent, 2020. B. 513-514.
4. Tulkinovna O.S. Psychological aspects of protest behavior of preschool children. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*. Vol. 8 No. 12, 2020 Part II., P. 39-43.
5. https://n.ziyouz.com/books/axloq_va_odob/Abdulla%20Avloniy.%20Turkiy%20Guliston%20yoxud%20axloq.pdf
6. <https://www.idpublications.org/wp-content/uploads/2020/12/Full-Paper-PSYCHOLOGICAL-ASPECTS-OF-PROTEST-BEHAVIOR-OF-PRESCHOOL-CHILDREN.pdf>